



UDK: 37.377.031

**G'olib TULISHOV,**

*Katta o'qituvchi, mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston milliy universiteti*

*E-mail: golibtulishov@gmail.com*

*Renessans universiteti dotsenti PhD J.Saitmurodov taqrizi asosida*

### RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI O'QITISHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Аннотация

Kreativ kompetentlik – bu shaxsning muammolarni samarali va innovatsion tarzda hal qilish, yangi g'oyalar yaratish, tasavvur qilish, ijodiy fikrlash va texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Kreativ kompetentlik shuningdek, yangi yechimlarni ishlab chiqish, turli fan va soxalarni integratsiyalash orqali yangi maxsulot va xizmatlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, insonga yangi tajribalarga ochiq bo'lish, natijalarga erishish va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Kreativ kompetentlik, metodik tizim, axborot texnologiyalari, integratsiyalash, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash.

### ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация

Творческая компетентность – это способность человека эффективно и новаторски решать проблемы, генерировать новые идеи, воображать, мыслить творчески и эффективно использовать технологии. Творческая компетентность также важна при разработке новых решений, создании новых продуктов и услуг путем интеграции различных дисциплин и областей. Развитие творческих способностей позволяет человеку быть открытым новому опыту, достигать результатов и оказывать позитивное влияние на общество.

**Ключевые слова:** Творческая компетентность, методологическая система, информационные технологии, интеграция, творческое мышление, критическое мышление.

### ISSUES OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN TEACHING DIGITAL TRANSFORMATION

Annotation

Creative competence is the ability of a person to solve problems effectively and innovatively, generate new ideas, imagine, think creatively and effectively use technologies. Creative competence is also important in developing new solutions, creating new products and services by integrating different disciplines and fields. Developing creative abilities allows a person to be open to new experiences, achieve results and have a positive impact on society.

**Key words:** Creative competence, methodological system, information technology, integration, creative thinking, critical thinking.

**Kirish.** Kreativ kompetentlik – bu shaxsning muammolarni samarali va innovatsion tarzda hal qilish, yangi g'oyalar yaratish, tasavvur qilish, ijodiy fikrlash va texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Kreativ kompetentlik shuningdek, yangi yechimlarni ishlab chiqish, turli fan va soxalarni integratsiyalash orqali yangi maxsulot va xizmatlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, insonga yangi tajribalarga ochiq bo'lish, natijalarga erishish va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini yaratadi. Raqobatbardosh, kompetent, yuqori intellektual salohiyatga ega va har tomonlama teran fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy usullari, mamlakatning samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilishning innovatsion vositasi sifatida ko'pgina mutaxassislardan tan olingan, ta'lim sohasida kundun kunga davlat siyosatining ijtimoiy muhim belgisiga aylanayotgan kompetentli yondashuvni qarab chiqaylik. Iqtisodiyotning turli sohalari uchun bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonida asosiy kompetensiyalarni shakllantirish, mamlakatimiz ta'lim tizimini halqaro ta'lim tizimi darajasiga olib chiqishda muhim omillardan hisoblanadi. Shu bilan birga zamonaviy mehnat bozorida insonning

raqobatbardoshligi amaliy jihatdan, uning yangi texnologiyalardan foydalana olish mahorati va mehnatning turli sharoitlariga tezda moslasha olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Aynan shuning uchun ham zamonaviy ta'limda kompetentli yondashuv g'oyasi yuzaga keldi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan yondashuv ta'lim oluvchining ijtimoiy, kommunikativ, axborot, kasbiy va boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yunaltirilgan bo'lib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni o'zida deyarli to'liq amalga oshirish imkonini beradi. Bu yondashuv ta'lim oluvchilar shaxsini to'liq tarbiyalash va muhim amaliy vazifalarni hal qilish imkoniyatini shakllantirish singari kompetensiyalar tizimiga asoslangan.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirishda kompetentli yondashuv asosida o'z taqdirini o'zi belgilash madaniyati (o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi amalga oshirishga tayyorlik va qodirlikni shakllantirish) yotadi. Kasbiy rivojlanib boruvchi mutaxassis o'z kasbida qandaydir yangilik (innovatsiya), jumladan, yangi texnologiyalar yaratish, mavjud yangi metodlar, usullar va boshqalar bilan ishlash imkoniga ega bo'ladi.

Kreativ kompetentlik asosan quyidagi elementlarni qamrab oladi:

Ijodiy fikrlash – yangi va noodatiy g'oyalarni yaratish;

Muammolarni innovatsion yechimlar bilan hal qilish – muammolarga turli va samarali yondashuvlarni ishlab chiqish;

Transdisiplinar yondashuv – turli sohalarini integratsiyalash va ulardan foydalanish;

Tanqidiy fikrlash – ma'lumotlarni tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilish;

Intuitsiya va ilhomlanish – ichki qobiliyatlarni qo'llash va yangi g'oyalardan ilhom olish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Kompetentli yondashuvning maqsadi – ta'lim sifatini ta'minlashdir. Ta'lim tizimini takomillashtirish muammolari bo'yicha halqaro miqyosda olib borilgan ishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmunini yangilanishida asosiy birlik sifatida “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari qaralmoqda.

Pedagogika va psixologiya olamida kasbiy ta'limning yangilanib borishi bilan bir qatorda ushbu birliklar tarkibi va tavsifi V.I.Baydenko, G.I.Ibragimov, I.G.Galyamina, A.M.Novikov, Y.G.Tatur, A.V.Xutorskoy va boshqa olimlarning ishlarida qamrab olingan.

Kompetentli yondashuv quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- talabalarning o'z maqsadlari bilan pedagoglarga qo'yilgan, ta'lim maqsadini muvofiqlashtirish;

- o'qishda talabalarning mas'uliyatligi va mustaqilligini oshirish hisobiga pedagogning mehnatini yengillashtirish;

- ta'lim mazmunini mexanik qisqartirish hisobi emas, balki individual mustaqil ta'lim ulushini oshirish hisobiga talabalar ishini yengillatish;

- o'quv va tarbiyaviy jarayonlar birligini nazariyotda emas, balki amaliyotda ta'minlash;

- bo'lajak o'qituvchilarni ongli va mas'uliyatli ta'limga tayyorlash.

Kompetentli yondashuv pedagogik nazariya va ta'lim amaliyoti uchun prinsipial jihatdan qanday yangilik beradi?

Birinchidan, kompetentli yondashuv boshqaruv va ta'lim jarayonlarini loyihalashda didaktik shartlar chegaralarining ancha aniq bo'lgan o'zaro aloqasini ta'minlaydi va osonlashtiradi.

Ikkinchidan, gnoseologik jihatdan kompetentli yondashuv o'qitishning metodik tizimi qismlari bo'lgan maqsad, mazmun va jarayonlarni samarali, mazmunli va instrumental jihatdan bog'laydi.

Uchinchidan, kompetentli yondashuv ta'lim jarayoni maqsadi va mazmunini kadrlarga bo'lgan talab va o'zgarib boruvchi mehnat bozoriga aniq ta'sir etishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, kompetentli yondashuv tizimning ba'zi qismlarida yaqqol ko'rinishdagi alohida kompetensiyalar yig'indisi sifatida kasbiy kompetentlikning umumiy maqsadini mazmunan, mantiqan va asosli ravishda batafsil tekshirish va izohlash imkonini beradi.

Beshinchidan, kompetentli yondashuv o'qitish uslubini yanada aniqroq, maqsadga muvofiq, bir vaqtda uning amaliy (kasbga) yo'naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradi.

Oltinchidan, kompetentli yondashuv kasbiy fanlar bo'yicha o'quv jarayonlarini loyihalashda o'quv jarayoni maqsadlarini tuzish va aniq ifoda qilish jarayonining o'zini keskin o'zgartirishi, ta'limni yanada sifatli, samarali, boshqariluvchan qilishi mumkin.

Yettinchidan, aslida kasbiy kompetentlikni va alohida kompetensiyalarni hisobga olib o'quv jarayoni maqsadlarini tuzishda, kompetentli yondashuvni amalga oshiruvchi yangi didaktik vositalar ajralib turadi.

Sakkizinchidan, kompetentli yondashuv o'zida ta'lim jarayonining yetarlicha kuchli bo'lgan motivatsion tashkil etuvchilarni namoyon etadi.

Bugungi kunda kompetentli yondashuv ta'limda innovatsion jarayonni ifodalaydi, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan ta'lim standartlarining umumiy konsepsiyasiga javob beradi, shuningdek ta'lim mazmunini loyihalash va uning sifatini nazorat qilishda kompetensiyalar tizimiga o'tish bilan bevosita bog'liq.

Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda kompetentli yondashuv bo'lajak mutaxassisning muhim ahamiyatli sifatleri to'plamini belgilash imkonini beradi. Qoida sifatida, ushbu sifatlar nafaqat davlat ta'lim standartlari (DTS) tomonidan, balki aniq korxonalar uchun mutaxassislarni maqsadli tayyorlash haqida oldindan kelishilgan shartnomalar asosida ish beruvchilarning shaxsiy talablari orqali belgilanadi. Bunda o'qituvchilar, talabalarning boshlang'ich darajalari va imkoniyatlarini baholab, qo'yilgan maqsadga erishish uchun ta'limning eng maqbul variantini tanlashadi. Mazkur variantni tanlash olingan axborotlar (DTS talablari, ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarga qo'yiladigan talablar, bitiruvchilarning o'z xohish va talablari) hisobiga amalga oshiriladi.

Bunda ijodkorlik – g'oya va ma'lumotlarni tahlil qilib, samarali yechimlarni tanlash malakasi, yangi, original va qiziqarli g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini, mavjud usullar va g'oyalarni yaxshilash yoki, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish qobiliyatini rivojlantirishni talab etadiki, bu malakalar zamonaviy jamiyat va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kadrlarni yetishtirishda namoyon bo'ladi.

Kompetentlikni rivojlantirish – bu mutaxassisning butun faoliyati davomida to'xtamaydigan jarayondir. Mazkur jarayonda bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligi nafaqat egallangan bilim, ko'nikma va malakalarga, balki ba'zi qo'shimcha sifatlar ham bog'liq bo'lib, bugungi kunda uni belgilash uchun kompetentli yondashuvning asosiy birliklaridan iborat “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ishlatilmoqda.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida Yevropada keng tarqala boshlanib, 1980-yillarning oxirida esa maxsus – ta'limda kompetentli yondashuv yo'nalishi paydo bo'ldi.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari dastlab turmushda, keyinchalik esa adabiyotlarda ishlatilgan, izohli lug'atlarda bayon qilingan. Masalan, “Xorijiy so'zlarning qisqacha lug'ati”da: “kompetentlik (lot. competens, competentis – kerakli, layoqatli) – biror aniq sohani tushunadigan, biladigan; o'zining bilimlari yoki vakolatlari bo'yicha xuquqlarini bilish, biror ishni hal qilish yoki bajarish; biror ish haqida fikr yurgizish” kabi ta'rif berilgan.

Kreativ kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

Ijodkorlik (Kreativlik) – original g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati, yangi yechimlarni topishda aqliy chegaralarni buzib o'tish, tasavvur va ilhomlanishdan samarali foydalanish.

Muammolarni hal qilish qobiliyati – muammoni tahlil qilish va uning asl sabablarini aniqlash, hal qilish uchun noodatiy va innovatsion yondashuvlarni qo'llash.

Tanqidiy fikrlash - g'oyalarni tahlil qilish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, qarorlarni turli nuqtayi nazarlardan baholash.

Transdisiplinar yondashuv - turli sohalar (fan, san'at, texnologiya va ijtimoiy fanlar)dan ma'lumotlarni birlashtirib, ulardan yangi g'oyalarni yaratishda foydalanish.

Empatiya - boshqalarning ehtiyojlari va nuqtayi nazarlarini tushunish orqali ularga mos yechimlarni taklif qilish.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish - yangi g'oyalarni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Kreativ kompetentlikning ahamiyatini yoritishda quyidagi jihatlarga urg'u berish zarur:

- shaxsiy rivojlanish - kreativ kompetentlik shaxsga o'zini anglash, qobiliyatlarini rivojlantirish va yangi g'oyalarni amalga oshirishga yordam beradi;

- ijtimoiy ta'sir - jamoa bilan ishlashda samarali yechimlarni ishlab chiqish orqali ijtimoiy muammolarni hal qilishga hissa qo'shadi;

- ish faoliyatida samaradorlik - kreativ kompetentlik ish jarayonida yangicha yechimlar yaratish, muammolarga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish orqali ish samaradorligini oshiradi;

- innovatsiyalarni joriy etish - kreativ kompetentlik innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va jarayonlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish usullarini aytib o'tmoqchimiz:

Ijodiy mashg'ulotlar – ya'ni, intellektual o'yinlar, mozaikalar, krossvordlar yechish, san'at va dizayn orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish;

Muammolarni yechish mashqlari - keyinchalik natijaga olib keladigan vaziyatli muammolarni yechish;

Noodatiy savollarga javob izlash (masalan, "Buni boshqacha yo'l bilan qanday qilish mumkin?");

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni solishtira olish;

Qaror qabul qilish jarayonida turli nuqtayi nazarlarni hisobga olish;

Jamoaviy faoliyat - guruh bilan ishlash va birgalikda yangi g'oyalarni ishlab chiqish;

Breynstorming mashg'ulotlari o'tkazish;

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish - Scratch, Tinkercad, Canva va shu kabi platformalarda yangi g'oyalarni ishlab chiqish.

Virtual voqelik (VR) va sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish.

O'qitishning modulli-axborot texnologiyalari asosida bo'lajak mutaxassislarining kreativ qobiliyatini shakllantirish modeliga asoslangan o'qitishning modulli-axborot texnologiyalari qo'llanilishi, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentlikning shakllanganlik darajasini o'z vaqtida va sifatli monitoringidan foydalanish imkonini beradi.

Tahlillardan ko'rinadiki, ilmiy tadqiqot ishlarida til va adabiyot sohasining bo'lajak kadrlarini tayyorlashda metodik tizimdan foydalanish masalasi faqat tor yo'nalishlarda, ya'ni aynan til va adabiyot sohasida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilari va muhandis-pedagoglarni maxsus fanlar bo'yicha tayyorlashda o'z aksini topgan. Biroq hozirgi vaqtda ta'lim tizimiga kompetentli yondashuvning joriy qilinishini e'tiborga olsak, u holda axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana oladigan va buni ijtimoiy fanlar sohasi bo'yicha bo'lajak pedagog kadrlar kreativ qobiliyatini shakllantirishga mo'ljallangan metodik tizim qurish muammosini ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, til va adabiyot sohasidagi bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash tizimida kompetentli yondashuvga asoslangan metodik tizim qurish va amaliyotda foydalanish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Mavjud o'quv adabiyotlar va ilmiy izlanishlarda bo'lajak til va adabiyot sohasida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarini metodik tayyorlash jihatlari, shuningdek ularning keyingi kasbiy tayyorgarligi masalalari, ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi yoritilgan. Lekin tadqiq etilayotgan yo'nalishdagi bo'lajak kadrlar kreativ qobiliyatini shakllantirish metodikasi hamda ushbu jarayonni amalga oshirish vositasi hisoblangan innovatsion metodik tizim qurish muammosi uzluksiz va uzviylik tamoyillari asosida ishlab chiqilmagan. Natijada mazkur soha kadrlarida kasbiy kompetensiyalardan ishlab chiqarish bilan bog'liq kasbiy faoliyat muammolarini samarali hal eta olmasliklariga sabab bo'lmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Dis. ... ped. fan. d-ri. – T.: 2012. – 307 b.
2. Begimqulov U.Sh., Djurayev R.X. va boshq. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T., 2011. – 38 b.
3. Boronenko T.A. Teoreticheskaya model sistemы metodicheskoy podgotovki uchitelya informatiki: Dis. ... dokt. ped. nauk. – SPb., 1997. - 335 s.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. d-ri. – T.: 2007. – 361 b.